



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 102 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'aurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiysi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

MUNDARIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	16
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	20
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	23
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	27
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limi o'yinlarning ahamiyati .	31
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	34
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'naliishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	37
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	41
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati	44
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	48
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	53
Isayeva Mushtari Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	56
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rлarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	60
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish:	
bosqichlar va tamoyillar	65
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	68
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	73
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	78
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "metallar va ularning umumiyl xususiyatlari" mavzusida)	81
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	85
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	88
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	93
Jonibekov Jasur Jonibekovich	
O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	98
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	

ДОШКОЛЬНОЕ ПРЕ-СCHOOL МАКТАБГАЧА BAHROM RO'ZIMUHAMMAD SHE'RLARINI O'QITISHDA INTEGRATSIYA USULIDAN FOYDALANISH

Nomozova Dilobar Suyun qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti,
O'zbek adabiyoti ta'limi yo'naliishi, 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot o'qitish metodikasining bugungi kundagi dolzARB muammolari, xususan, zamonaviy asarlarni, ayniqsa, modern she'riyatni o'qitishdagi yondashuvlar yoritilgan. Bahrom Ro'zimuhammad kabi o'ziga xos uslub egasi bo'lgan shoirning she'rlari sinfdan tashqari o'rganish uchun tavsija etiladi. Maqolada adabiy, musiqiy va tasviriy san'at yo'nalishlarini birlashtirish orqali integratsiyalashgan ta'lim usuli asoslab berilgan. "Ko'k kuylakli qiz" she'rining tahvili jarayonida Shopen musiqasi va Akmal Nur ijodidan tanlangan suratlar orqali badiiy-estetik anglashuvni kengaytirish imkoniyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Modern she'riyat, adabiyot o'qitish metodikasi, Bahrom Ro'zimuhammad, "Ko'k kuylakli qiz" she'ri, musiqiy integratsiya, tasviriy san'at, kompleks yondashuv.

Abstract: This article explores current issues in the methodology of literature teaching, particularly in the context of modern poetic works. The author recommends incorporating the poems of Bahrom Ruzimuhamed—a poet with a unique style—into extracurricular reading programs. The article substantiates an integrated approach to teaching through the convergence of literary, musical, and visual arts. The analysis of the poem "The Girl in the Blue Dress" is supported by references to Chopin's musical compositions and selected paintings by Akmal Nur, enhancing the aesthetic perception of students.

Key words: Modern poetry, literature teaching methods, Bahrom Ruzimuhamed, The Girl in the Blue Dress, musical integration, visual arts, integrated approach.

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные вопросы методики преподавания литературы, особенно в контексте обучения современному поэтическому творчеству. Рекомендуется внеаудиторное изучение стихов Бахрома Рузимухаммада – поэта с оригинальным стилем. Обоснована эффективность интегративного подхода, объединяющего литературное, музыкальное и изобразительное искусство. В рамках анализа стихотворения "Девушка в синем платье" используются музыкальные произведения Шопена и картины Акмала Нура, что способствует углублению эстетического восприятия учащихся.

Ключевые слова: Современная поэзия, методика преподавания литературы, Бахром Рузимухаммад, Девушка в синем платье, музыкальная интеграция, изобразительное искусство, интегративный подход.

KIRISH

Zamonaviy adabiy ta'larning asosiy vazifasi – o'quvchilarda estetik tafakkur hamda mustaqil fikrlesh ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda modernistik oqim vakillarining asarlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki modernizm badiiy adabiyotga yangicha yondashuvni, zamon ruhini chuqr anglashni va ichki psixologik holatlarni tasvirlashga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Afsuski, hozirgi kunda umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim muassasalarida modernistik asarlar yetarli darajada yoritilmayapti. Buning sabablari qatorida ushbu asarlarning mazmuniy murakkabligi va ularni tahlil qilish uchun zarur metodik materiallar yetishmasligi kabilarni ko'rsatish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bahrom Ro'zimuhammad – o'zbek she'riyatiga yangicha nafas olib kirgan modern she'rlar ijodkoridir. Garchi bugungi kunda shoirning yangi to'plamlaridan bahramand bo'la olmayotgan bo'lsak-da, ijodkorining 1980–1990-yillardagi she'rlari e'tiborga loyiqliqdir. Shoir ijodi darsliklarga kiritilmagan bo'lib, shu sababli uning she'rlarini sinfdan tashqari o'qish va o'rganishni tavsija etamiz.

"Lirikada voqelik subyektning his-tuyg'ulari orqali aks etadi; uning uchun badiiy nutq obyekti emas, balki subyekti birlamchidir" [4].

Lirik turdag'i asarlar adabiyotimiz xazinasida salmoqli o'ringa ega. Q. Yo'ldoshev va M. Yo'ldosheva o'zlarining metodikaga oid asarlarida lirikaga xos quyidagi xususiyatlarni sanab o'tadilar:

- His-tuyg'ular ifodalanishi;
- Kichik hajmga egaligi;
- Badiiy nutqning she'riy shaklga ega bo'lishi;
- Nasriy she'rlarning ham uchrashi;
- Monologik nutq ustuvorligi;
- Badiiy zamonning "hozirgi zamon"da ifodalanishi;
- Badiiy shaxsnинг "men" ekanligi [6].

Shuningdek, ular lirikaning epik va dramatik turdan farq qiluvchi jihatlari, shoirning ruhiy holatlari, anglashlari, ong va ongosti sezimlarining tasvirlanishi, hissiy tafakkur va subyektivlikning ustuvorligini ta'kidlaydilar.

Z. Mirzayeva va K. Jalilov adabiyot o'qitishga doir uslubiy qo'llanmalarda lirika bilan ishlashda faol o'qish modeli sifatida quyidagi strategiyalarni keltiradilar:

- Eshitish;
- Tasavvur qilish;
- Reaksiya bildirish;
- Savol berish;
- Aniqlashtirish;
- Talqin qilish [3].

Bunday tartibda o'rganigan she'riy asarni anglash va his qilish o'quvchi uchun samarali yo'l bo'la oladi. O'qituvchidan talab etiladigani esa, darslikdagi she'rni faqat yod olish vositasi sifatida emas, balki uning mazmun va mohiyatiga chuqur e'tibor qaratgan holda, yuqoridaq model asosida tahlil qilishdir.

Q. Husanboyeva va R. Niyoziyeva "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli kitoblarida she'r o'qitishda uning mazmunini oddiy aytib berishga yo'l qo'ymaslik kerakligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, savollar va topshiriqlarning ahamiyatini ham alohida qayd etadilar. Ular fikricha, she'riy asarni o'rganishda tasvir va tuyg'ular ifodasiga birdek e'tibor qaratish zarur. She'r matni yoddan aytib berilgandan so'ng, savollar va topshiriqlar orqali o'quvchilar undagi badiiy mohiyatni yanada chuqurroq his qilishlari mumkinligi turli misollar bilan asoslab berilgan [1].

B. To'xliyev "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli asarida o'quvchilarga she'riy asarlarning talqini uchun bir yo'ldan emas, balki ko'plab yondashuvlar mavjudligini, shoir niyatining ko'p hollarda tagma'nolarda yashirinligini tushuntirish lozimligini ta'kidlaydi. Shu bois, she'r har doim turli-tuman ma'nolar kasb etishi mumkin va bu holatda o'quvchilarda erkin talqin qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega [5].

Ortega-i-Gassetning quyidagi fikrlari ham shu nuqtada alohida ahamiyat kasb etadi:

"Poeziya – majozning oliy matematikasidir. Insonda bir narsani boshqasi bilan almashtirish ehtiyoji shunchaki tushunish uchun emas, balki yashirish uchun mavjud. Majoz esa bu niqobni juda chaqqonlik bilan amalga oshiradi. Agar uning ortida odamga xos reallikdan qochish instincti bo'lmaganida, majoz hech qanday ma'noga ega bo'lmas edi" [2].


Darhaqiqat, Bahrom Ro'zimuhammad she'rlari betakror majozlar ortiga berkingan.

"Lirik asarni tahlil qilishda matndan mantiqiy xulosa chiqarishga shoshilmaslik, imkon qadar bunday xulosani topishga umuman intilmaslik kerak. Lirik asar tahlilida eng muhimi – she'rda ifoda etilgan ruhiy holatga she'rxonning ruhiy olamidagi reaksiya va munosabatning muvofiqligini ta'minlashdir" [7].

Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarda ijodkorlik ruhini shakllantirish maqsadida quyidagi metodni qo'llash taklif etiladi.

Shoirni ko'ngil peyzajining mohir rassomiga qiyoslash mumkin. ZOTAN, so'zlar siyohida yaratilgan san'at asarlarini nafaqat ko'z bilan o'qish, balki qalb bilan his qilish, so'zlarning ohangini eshitish va ma'no orqali tuyish lozim.

Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'rganishda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi va ularga loyiha asosida uy vazifasi beriladi. Har bir guruhi shoir ijodidan bir she'rni tanlab, quyidagi mezonlar asosida taqdimot tayyorlaydi:



1. She'rga mos kuy tanlash (jahon va o'zbek bastakorlarining mumtoz kuylaridan – Betxoven, Motsart, Vivaldi, Shopen, Shubert, Yanni va boshqalar);
2. She'rga mos surat tanlash (mashhur jahon va o'zbek rassomlari asarlaridan yoki eng yaxshi deb topilgan fotosuratlardan);
3. She'rni ifodali o'qish;
4. Mobil telefon yoki kompyuter yordamida yuqoridaqilarni umumlashtirib, yagona loyiha sifatida taqdim etish;
5. She'rning mavzusi, mazmuni va badiiy tasvir vositalariga qisqacha to'xtalib o'tish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalar, metodik qo'llanmalar hamda Bahrom Ro'zimuhammad she'rlari asosida olindi. She'rlar tahlilida kontekstual yondashuv, badiiy ifoda vositalarini tahlil qilish, shuningdek, integratsion uslubdagi amaliy pedagogik tajribalar asosida sifatli tahliliy metodlar qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Masalan, shoirning quyidagi she'rini tanladik:

Ko'k kuylaklı qız
U yurganda – yo'llar charog'on,
Qizillikka burkanib dala,
Qadamidan bo'lib mash'ala –
Charos ko'zi mavjlangan zamon.
Yonar edi yanoqlari ham...
Ipak sochi qora qaymoqday
Yelkasida tovlangan chog'da
Har yurakka tashlardi qadam.
Oq navoga yo'g'rilgan xilqat,
U gul edi qizga aylangan,
G'oyat nafis tabassum bilan
Qaraganda zabt etardi qalb.
U adashdi alam behuda,
Parchaladi nogoh g'ururin,
Yulduz nuri deya oy nurin
Go'yo ko'rdi – suvda, ko'zguda.
Ruhim ichra termular elas...
O, tabiat, uyg'otma uni,
Sevgimizni ilk bahor kuni
Yashil tusda esga olsang bas.
(1979)

Ushbu she'r shoirning yigitlik pallasida yozilgan sevgi mavzusidagi lirk asaridir. Unda oshiq yigit sevgilisi yurgani bois dalalarga, bog'larga bahor tashrif buyurgandek holat tasvirlanadi. Quyosh nurining charog'on tarqalishi, go'zallikning bahor bilan uyg'un ifodalanishi poetik ifoda vositalari orqali ochib berilgan.




Shoir sevgan qizning yanoqlari alvon rangda tovlanadi, sochlari esa ipakdek mayin va "qaymoqday qora". Bu yerda kontrast obrazlardan foydalanilgan: odatda qaymoq oq rangda bo'ladi, biroq shoir uni qoraga meng-zaydi – bu esa noziklik va go'zallikni kuchliroq ta'svirlashga xizmat qiladi. Oshiq qizni ko'rgan har bir yurakka "qadam tashlaydi" – bu orqali yurakning larzaga kelishi, ichki hayajon obrazli tarzda tasvirlanadi.

Uchinchi bandda "oq navo" timsoli – tinchlik, beg'uborlik, sokinlik va bokiralik ramzi sifatida ishlataladi. Shoir nazarida sevganini ko'rganda quloqlariga oppoq navo chalinadi. "U gul edi, qizga aylangan" misrasi esa estetik jihatdan eng mukammal ta'riflardan biridir. Bu yerda qiz obrazining gul bilan qiyoslanishi an'anaviy bo'lsa-da, samimiy va hissiy ohang bilan yangicha talqinda berilgan.

To'rtinchi bandda jumboqli holat – adashish, chalg'ish, yolg'on umid kabi his-tuyg'ular tahlil qilinadi. Qiz yulduz nurini istagan, biroq oy nuriga duch kelgan. Shoir bu orqali muhabbatdagi noaniqlikni, chalg'ishlarni ifodalamoqda. Oy nuri doimo bir xil bo'lmaydi – goh to'lin, goh yarim bo'ladi; yulduz esa barqaror nur sochadi. Demak, oshiq muhabbati ham oy nuridek – barqaror emas, to'liq bo'laman holatda qolgan. Bu muhabbat shoirga nasib etmagan, ammo u qalbida "nur sochib" turgan ilk muhabbat sifatida muhrlangan.

She'r so'ngida tabiatdan iltijo qilinadi: bahorning ilk kunida sevgini yashil tusda yodga olish – bu nafaqat tabiat yangilanishi, balki muhabbat xotirasi orqali ichki yangilanishga ishora qiladi.

Ushbu she'rga Friderik Shopenning "Spring Waltz" (Bahor valsi) kuyini mos deb topdik. Undagi ohang she'rning nozik ruhiyatini musiqiy vosita orqali yanada chuqur his etishga yordam beradi.





Shuningdek, Akmal Nur ijodidan tanlangan suratlar orqali qiz obrazining estetik talqini vizual vositalar bilan boyitiladi. Mazkur metodni biz “Guldasta” deb atadik, chunki u she’r, musiqa va tasviriy san’atni bir butunlikda uyg’unlashtirishga qaratilgan.

Mavzuni yanada mustahkamlash maqsadida “Sirli konvert” usulidan ham foydalanish mumkin. Bu usulda Bahrom Ro’zimuhhammadning she’rlaridan biri tanlanadi. She’r bandlari alohida qog’ozlarga yozilib, kichik guruhlarga tarqatiladi. Qaysi guruh birinchi bo’lib bandlarni to’g’ri tartibda joylasa, g’olib hisoblanadi. Bu metod o’quvchilarda mantiqiy izchillik, obrazlar tafakkuri va matnni anglash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Husanboyeva Q., Niyozmerova R. Adabiyot o’qitish metodikasi. Toshkent: Innovatsion-Ziyo, 2020. 236-bet.
2. Ortega-i-Gasset. Degumanizatsiya iskusstva, s. 17 – <https://www.webreading.ru>
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o’qitish metodikasi. Uslubiy qo’llanma.
4. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati. Toshkent: Akademnashr, 2010. 152-bet.
5. To’xliyev B. Adabiyot o’qitish metodikasi. Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 85-bet.
6. Yo’ldoshev Q., Yo’ldosheva M. Adabiyot o’qitish metodikasi. Toshkent, 2022. 194-bet.
7. Yo’ldoshev Q., Yo’ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Kamalak, 2016. 179-bet.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
 - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
 - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03** Maxsus pedagogika
 - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07** Ta'limda menejment
 - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00** Tarix fanlari
 - 19.00.00** Psixologiya fanlari
 - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00** Kimyo fanlari
 - 03.00.00** Biologiya fanlari
 - 09.00.00** Falsafa fanlari
 - 10.00.00** Filologiya fanlari
 - 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.